

7. Salimov, B., Valiyev, R. (2021). Raqamli ta'lim texnologiyalarini xavfsiz qo'lllash: oliv ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan yechimlar. "Pedagogik mahorat" jurnali, 2(80), 67-74.
8. Xodjayev, B., Abduraximov, A. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida raqamli xavfsizlikni ta'minlash: tadqiqotlar va tavsiyalar. O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy to'plami, 1(87), 145-153.
9. Yusupov, M., Shomurodov, K. (2021). Kiberxavfsizlik masalalari: oliv ta'lim tizimidagi holatlar va yechimlar. "Uzluksiz ta'lim" jurnali, 4, 48-57.

TALABALARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

**O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti
“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasи o'qituvchisi
Xidirova Umida Erkin qizi**

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda talabalarning ta'lim jarayonida axborotning tutgan o'rni, uning shakllanishi va iste'molchisi sifatida yoshlarning axborot ko'nikmalari, axborot olishdagi muammolari va ularni bartaraf etishda talab etiladigan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida tahlil qilinib ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: axborot, media, yoshlar madaniyati, axborotdan foydalanish madaniyati, mafkuraviy immunitet, zamonaviy texnologiya, dastur.

THE IMPORTANCE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' CULTURE OF WORKING WITH INFORMATION

Abstract. The article analyzes the role of information in the educational process of students today, the views of young people as producers and consumers of information, the problems of obtaining information and information technologies necessary for their production, based on scientific sources related to communication, and information is provided.

Key words: information, media, youth culture, information transfer culture, ideological immunity, modern technology, program.

ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье на основе научно обоснованных данных анализируется роль информации в образовательном процессе студентов сегодня, ее формирование и информационные навыки молодежи как потребителей, проблемы получения информации и использования

информационно-коммуникационных технологий, необходимых для их устранения. предоставил.

Ключевые слова: информация, СМИ, молодежная культура, культура использования информации, идеологический иммунитет, современные технологии, программа.

KIRISH. Jamiyatda hosil bo‘layotgan axborot bo‘ronidan jamiyat a’zolarini, ayniqsa, jamiyatning kelajagi bo‘lgan yoshlarni himoya qilishda, ularda axborot madaniyatini shakllantirish o‘ta dolzarb muammo hisoblanadi. So‘nggi vaqtarda esa axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendentsiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrasi sifatida qaralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi.[9]

Insoniyat sivilizatsiyasining axborotlashgan jamiyatga qadam qo‘yishi — insonlarni yangi hayot sharoitiga va yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitida professional faoliyatga o‘z vaqtida tayyorlash, bu muhitda mustaqil ravishda harakat qilishga, muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy ta’sirlardan himoyalanishga o‘rgatish kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltira boshladi. Axborotlashgan jamiyat shakllanishidagi muammolar, avvalambor bu jamiyatda inson o‘rni muammosi bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning diqqat markazidagi mavzu bo‘lmoqda. Axborotlashgan jamiyatda insonlarni hayotga maxsus tayyorlash zarurati nufuzli xalqaro tashkilotlarning sammitlarida ko‘rib chiqilib, maxsus dasturlar qabul qilinmoqda. Bunga misol sifatida YUNESKO ning “Axborot hamma uchun” dasturi va IFLA ning “Axborot savodxonligi” bo‘limi faoliyatini keltirish mumkin. Keltirilgan muammolar mazmuniy jihatdan axborot madaniyati ta’rifida o‘z aksini topganligini ko‘rish qiyin emas.[7]

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA. Globallashuvning insoniyat, jumladan yoshlari hayotiga ta’siri juda kuchli bo‘lib, o‘z navbatida ularning globallashuvning kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarining oldini olish uchun masifikuraviy immunitet shakllantirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib mazkur sohaga oid ilmiy tadqiqot va asarlar yaratgan olimlarning ilmiy xulosalaridan foydalanildi. Jumladan, M.X. Toxtaxodjayeva[3], B.Xodjayev[4], M.Maxmudova, B.Umarov, M.Axmedova, Sh.Qudratxo‘jayev kabi soha mutaxassislarining asarlari assosiy manba sifatida olindi.

NATIJALAR. Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirish jarayoni ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa jihatlarini qamrab olmoqda. Binobarin, axborotlashtirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatlar uyg‘unlikda olib boriladi. Bunday jamiyatning nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida, balki ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy hayotida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ma’lumki, har qanday faoliyat sohasi ekstensiv va intensiv yo‘l bilan rivojlanadi. Axborotlashtirish jarayoni ham bundan mustasno emas. Uning dastlabki bosqichlarida ekstensiv rivojlanish ustun bo‘lsa, keyin intensiv

rivojlanish bilan almashadi. Ekstensiv usul - kompyuter paydo bo‘lishi bilan boshlangan. Unda quyidagi muammolar hal etilgan: jamiyatni axborotlashtirishning ilmiy bazasini ta’minlash; hisoblash texnikasini ommaviy ishlab chiqarish uchun texnologik baza yaratiladi; turli ijtimoiy, kasbiy va yosh guruhlarining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash; dasturiy vositalarini ishlab chiqish, hujjatlashtirish, tarqatish va reklama qilish bo‘yicha tuzilmalarni yo‘lga qo‘yish; hisoblash texnikasi bilan ishlashda ommaviy o‘qitishlarni ta’minlash uchun asos yaratish; ta’lim tizimiga yangi texnologiyalarning joriy qilinishi munosabati bilan mutaxassislarini uzlusiz o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish; axborot xizmatlarini ta’minlash uchun aloqa vositalari infratuzilmasi tayyorlanadi. Ushbu ilmiy-metodologik muammolarning tabiiy ravishda hal etilishi natijasida ekstensiv yo‘l amalda inson faoliyatining barcha sohalari, jumladan, fan, mehnat, loyihalashtirish, o‘qitish va iste’mol jabhalarini qamrab oldi. Shunday qilib, axborotlashtirishning intensiv yo‘liga o‘tish imkoniyati yuzaga keldi, uning maqsadi jamiyat va insonlarning axborotga bo‘lgan talablarini qondirishdan iborat.

Bugun dunyoda axborot va globallashuv jarayonlari ta’sirida keng ko‘lamli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xususan, ta’limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, internet, global va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jadal rivojlanmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida keng tarqagan elektron ta’lim deganda ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan va ta’lim dasturlarini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan ma’lumotlar, ularni qayta ishlashni ta’minlaydigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, texnik vositalar, shuningdek, tegishli axborot vositalari, shuningdek, elektron ta’lim tizimi tushuniladi. Aloqa liniyalari orqali axborot uzatishni, o‘quvchilar va pedagoglarning o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish orqali tashkil etilgan o‘quv jarayoni bugungi kunning yutug‘i. Bu tushuncha bir qator adabiyotlarda “elektron ta’lim” va boshqa shakllarda uchraydi. Bundan tashqari ta’lim jarayonida zamonaviy electron dasturlardan foydalanish va bu orqali talablalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda darslarda qo‘llaniladigan Google dasturiy ta’minotlari, shuningdek jamoa bo‘lib ishlash uchun maxsus, ta’lim sohasini rivojlantirish va o‘zaro erkin axborotlar almashinuv jarayonini yaratib beruvchi bir qancha dasturlardan foydalanish maqsadga muvofikdir.

MUHOKAMA. Axborot olish madaniyati, ya’ni axborot savodxonligi bo‘yicha xorijiy mamlakatlarga nazar solinsa, kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. «Axborot savodxonligi» atamasi aynan mana shu e’tibor natijasida paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, axborot savodxonligi bo‘yicha milliy forumlar yaratilgan bo‘lib, yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan.[7] XX asr oxirilariga kelib, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va Internetning yartilishi natijasida axborot uzatuuvchi soha bo‘lmish jurnalistikaning mahsulot tayyorlash jarayonida mislsiz o‘zgarishlar ro‘y berdi. Agar ilgari bizning tasavvurimizda telejurnalist kasbi

ko‘rinishida televidenyening ko‘chma television stansiyalari jamlangan katta maxsus avtobuslar, yelkada bazo‘r turadigan og‘ir videokameralar, qo‘pol chiroq uskunalar yoki radio jurnalistning o‘zi bilan ko‘tarib yuradigan haybatli ovoz yozish uskunalar ko‘z oldimizga kelgan bo‘lsa, internet jurnalistika paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan jurnalist ijodi mahsulotini yaratishda ishchi kuchining qisqarishi, salmoqli mablag‘ va vaqtning tejalishiga imkoniyat paydo bo‘ldi.[8]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kun yoshlari taraqqiy etgan texnologiyalar olamida cheksiz takliflar chegarasida mavjuddir. Ularning axborot sintez xususiyati mavjudlik darajasiga ko‘ra axborotdan foydalanish doirasini belgilaydi. Mazkur tanlov ularning hayotiga ta’sir o‘tkazishidan tashqari jamiyat hayotiga ham ta’sirini o‘tkazadi. Sababi yoshlarning qanday g‘oya ostidagi axborotlardan foydalanishi va uni targ‘ib etishi shu millatning kelajagiga ham ta’sirini o‘tkazadi. Texnik moslamalar va Internetga kirish imkoniyati taqdim etilar ekan, mediadan xavfsiz va to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha qo‘llanma ham berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Шавкат Мирзиёев. Тошкентда бўлиб ўтган "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби" мавзудаги анжуманда сўзлаган нутқи. 15.06.2017 йил. Тошкент.
 2. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари. Ўкув-амалий қўлланма. - Т.: Extremum-press, 2017.
 3. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta‘lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; 0 _zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta‘lim vazirligi. — Toshkent: « 0 _zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.
 4. Ўкувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси / Б.Ходжаев, М.Махмудова – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2016.
 5. Очиқ ахборот тизимларида ахборот- психологик хавфсизлик: ўкув қўлланма Умаров Б., Ахмедова М. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги ; Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари ун-ти : - Т. Chashma Print, 2013.
 6. Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. - М.: Либерея-Бибинформ, 2007.
-
1. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. –2022. –T. 3. – No. 01. –C. 1-4.13.

2. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers“ education //in Library. –2022. –T. 22. – No. 2. –C. 189-200.
3. Кубаева М. Ekologiktarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –T. 22. –No. 1. –C. 8-11.
4. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //inLibrary. –2021. – T. 21. –No. 2. –C. 51-53.
5. Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.
6. М Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o’rni // in Library 2021 (1), 102-105
7. М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926
8. 7.<http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot-olish-madaniyatini-shakllantirishdajtimoiy-meyorlarning-orni/>
9. Internet va axborot: xizmatlar, foydalanish asoslari. o‘quv qo‘llanma // Qudratxo‘jayev Sh. Toshkent. Istiqlol, 2013.
- 10.<https://infocom.uz/talimda-axborot-madaniyati/>